O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

B.A.Xolikov

2024-yil “ ” _____

Ro‘yxatga olindi № BD-60320100-1.06.2

2024-yil “ ” _____

MILLIY VA JAHON JURNALISTIKASI TARIXI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta’lim sohasi:	320 000 – Jurnalistika va axborot
Ta’lim yo‘nalishi:	60320100 – Jurnalistika (xalqaro jurnalistika)

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
MJJT1104	2024-2025	1	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		3

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	Milliy va jahon jurnalistikasi tarixi	48	72	120

I. Fanning mazmuni

Fanni o’qitishdan maqsad - talabalarga jahon va O’zbekistonda jumalistikaning paydo bo’lishi, shakllanishi va taraqqiyoti tendentsiyalari, uning tarixiy asoslari, rivojlanishi nazariyalarini o’rgatish hamda egallangan tizimli bilimlarni amaliyotda tatbiq etish ko’nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalari nazariy bilimlar, amaliy ko’nikmalar, jurnaiistika rivojida kuzatilgan hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

II.Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

2

1-mavzu. Turkiston (O‘zbekiston)da matbuotning yuzaga kelishi arafasida siyosiy-ijtimoiy vaziyat. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixini davrlashtirish.

“O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi”ning o‘rganish ob'ekti. Turkistonda matbuot yuzaga kelishidagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat: o‘lkaning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va uning Rossiya imperiyasi tarkibidagi bir hudud sifatida o‘zlashtirilishi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Mazkur fanni ikki katta bosqichga bo‘lib o‘rganilishi:

1.Mustabidlik davri O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi.

2.Mustaqillik davri O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgunga qadar “0‘zbekiston jurnalistikasi tarixi”ni o‘rganish. Cho‘lpon, Ziyo Said, Abdulla Avloniy, T.Emazarov, A.Akbarov, T.Pidaev va boshqalarning maqola, risola o‘quv qo‘llanmalariga qisqacha sharh va tavsiflar.

2-mavzu. “Turkestanskie vedomosti” va “Turkiston viloyati gazeti”. Turkistonda senzura va axborot agentliklari. Xususiy gazeta va jurnallarning tashkil etilishi.

Turkistonda paydo bo‘lgan ilk gazetalar: “Turkestanskie vedemosti” va “Turkiston viloyatining gazeti” nashrlari oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar. Mazkur gazetalarning mustabidlik siyosatini o‘tkazishda o‘ynagan roli. Ushbu nashrlarning yoritgan mavzu doiralari

“Turkiston viloyatining gazeti” (“TVG”)ga muharrirlik qilgan aka-uka Ibrohimovlar, M.Chanishev, Turkiston matbuotini Oktyabr to‘ntarishigacha ta'minlagan axborot agentliklari: Markaziy telegraf agentligi (STA) va Shimoliy telegraf agentligi (STA). XIX asr oxiriga kelib xususiy bosmaxonalarning yuzaga kelishi. Dastlab Toshkentda, so‘ngra Samarqand, Qo‘qon, Namanganda yuzaga kelgan bosmaxonalar. Xususiy gazeta va jurnailar: “Okraina”, “Zakaspiyskoe obozrenie”, “Russkiy Turkestan”, “Asxabad” va boshqalar. “Srednyaya Aziya”, “Sredneazitskiy vestnik” va boshqa jurnailar. Ularning g‘oyaviy yo‘nalishlari, yoritgan mavzulari.

3-mavzu. Turkistonda milliy matbuotning yuzaga kelishi. Jadidlar matbuotining birinchi davri (1906 yii - 1917 yil Fevral to'ntarishi)

Turkistonda milliy matbuot yuzaga kelishining siyosiy-ijtimoiy omillari. 1905 yil 17 oktyabr manifesti. Unda Rossiya fuqarolariga va’da qilingan so‘z, matbuot va jimiyatlar(firqalar) tuzish erkinligi. Bu erkinliklardan foydalanish uchun bo‘lgan harakatlar. Mustabid hukumatning mahalliy aholini aldash uchun harakati. “O‘rta Osiyoning umrguzoronligi Taraqqiy” gazetasining tashkil qilinishi. Mahalliy ziyolilaming mazkur gazetaga bo‘lgan qiziqishlari va gazetadan kutgan adolat mezonlarining yuzaga chiqmaganligi. Gazetaning chiqishdan to‘xtashi.

Jadidlarning milliy gazeta chiqarish uchun qilgan harakatlari. “Taraqqiy” gazetasining paydo bo‘lishi. Uning mahalliy xalqlar manfaatlarini himoya qilishi. Erk-ozodlik g‘oyasining tug‘ilishi. Mustabid hukumatning gazetani yopishi. “Taraqqiy” muharriri Ismoil Obidiyning qamoqqa olinishi. “Xurshid”, “Shuhrat”, “Tujjor”, “Osiyo” gazetalarining faoliyati. “TVG” bilan milliy matbuot orasidagi mafkuraviy kurash. Buxoroda jadidlar matbuoti: “Buxoroi sharif” va “Turon” gazetalarinnig chiqishi. Toshkentda “Sadoi Turkiston”, Qo‘qonda “Sadoi Farg‘ona” gazetalarining yuzaga kelishi, ularning faoliyatiga qisqacha tavsif.

Samarqandda “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalining faoliyat ko‘rsatishi. Jadidlar matbuoti bilan birga, Turkistonda ulamolar nashrlarining paydo boMishi. “Al-Isloh” jurnali.

4-mavzu. Muvaqqat hukumat davrida Turkiston (O‘zbekiston) jurnalistikasi. Jadid matbuotining yirik publicistlari.

1917 yil Fevral to‘ntarishidan keyin Turkistonda yuzaga kelgan siyosiy-ijtimoiy vaziyat. “Sho‘roi islomiya” jamiyatining yuzaga kelishi. Vaqtli hukumatning Turkiston komiteti. Hokimiyatni egallash uchun zimdan bo‘lgan kurash. “Turkiston viloyatining gazeti” va “Turkestanskie vedomosti” gazetalarining o‘z faoliyatlarini to‘xtatishi. “Najot” va “Kengash” gazetalari. “Turon” va “Sho‘roi islomiya” gazetalarining qisqamuddatli urnri. Farg‘onada yuzaga kelgan yangi nashrlar.

Turkistonda jadidlar va ulamolar firqalarining tuzilishi. Ularning organi boMgan gazetalar. Samarqandda "Hurriyat" gazetasining chiqishi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsist sifatida shakllanishi. Adib publitsistikasining mavzu doirasi. Siyosiy publitsistikasi. Maorif va madaniyatga bag'ishlangan publitsistik chiqishlari. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida Turkistonning istiqboli mavzui. Behbudiyning sayohatnomasi. Uning muharrirlik faoliyati.

Munavvar qorining jurnalistikaga kirib kelishi. Uning jumalistik faoliyatida "Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Najot" gazetalarining o'rni va ahamiyati. Munavvar qorining maktab va madrasalar islohiga bag'ishlangan publitsistik maqoiaiari. Publitsistning eskirgan, nojoiz urf-odatlarni tanqid qilishi. Munavvar qori publitsistikasida siyosiy-ijtimoiy mavzu.

Abdulla Avloniy publitsistikasida ta'lim va tarbiya masalalari. Publitsistning siyosiy-ijtimoiy voqyealarga munosabat bildirgan asarlari. Avloniyning "Afg'on sayohati" safarnomasi. "Shuhrat" va "Turon" gazetalariga muharrirlik faoliyati.

Ubaydulla Asadullaxo'jaev - yangi tipdagi muharrir. Uning huquqiy savodxonlikni oshirishga mo'ljallangan publitsistik maqoiaiari, jamiyatda yangi islohotlami amalga oshirish uchun olib borgan siyosiy va ijtimoiy faoliyati.

Abdulla Qodiriy publitsistikasi. Adib ijodining mavzu yo'nalishlari. Hajviy publitsistikasi. Ocherklari.

Cho'lponning publitsist sifatida shakllanishi. Uning ijodida erk, istiqlol mavzusi. Sho'rolar hokimiyati o'rnatilgandan keyingi ijodi. Cho'lponning muharrirlik faoliyati.

Fitratning jurnalistikaga kirib kelishi. Uning siyosiy publitsistikasi. Fitratning adabiy-tanqidiy ijodi. Muharrirlik faoliyati.

5-mavzu. O'zbekistonda bolsheviklar matbuotining yuzaga kelishi. Uning Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrdagi taraqqiyoti xususiyatlari (1917 noyabr- 1941 yil iyun)

Turkistonda hokimiyat tepasiga bolsheviklarning kelishi. Dastlabki sho'ro gazeta va jurnallari. Orif Klibleevning o'zbek sho'ro matbuotini yuzaga keltirishdagi harakati. Sho'ro matbuoti hisoblanmagan gazeta va jurnallami yopish to'g'risida Lenin imzolagan dekretning (1917 yil, 8 noyabr) amalga oshirilishi. 0'zbek ziyolilari erk va istiqlol uchun kurashning matbuotda zohiriy va botiniy ko'rinishlari. "El bayrog'i" gazetasining faoliyati. 0'zbekiston SSRning tashkil topishi. Sho'ro matbuotida sinfiylik va partiyaviylik prinsiplari. Matbuotga partiyaviy rahbarlikning mohiyati.

Sho'rolar hukumatining inatbuot yuzasidan qabul qilgan qarorlari, SSSRda sotsialistik jamiyat qurilishida matbuot zimmasiga yuklangan vazifalar.

6-mavzu. Sho'rolar matbuotining ikkinchi jahon urushi va undan so'nggi davrlari (1941 - 1991 yillar)

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Sho'rolar matbuotining urush davri faoliyatiga qisqacha tavsif. Urushdan keyingi - mamlakat xalq xo'ja!igini tiklash, "sotsializm qurilishi uzil-kesil va to'la g'alaba qilishi"ni ta'minlashda matbuotning vazifasi. Turg'unlik yillarida sho'ro ommaviy axborot vositalari tizimi. "Qayta qurish" davrida OA V.

Sho'ro matbuotining barham topishi. Sho'ro matbuoti yuzasidan qisqacha xulosalar.

7-mavzu. Qadimgi Yunoniston, Rim va O'rta asr yevropasida kommunikatsiya vositalari.

Kommunikatsiya turlari va ularning paydo bo'lish tarixidan. ijtimoiy muomala vositasi publitsistikaning yuzaga kelishi. Og'zaki va yozma kommunikatsiya vositalari mafkuraviy ta'sir etishning asosiy vositasi sifatida.

Antik davr jamiyatida dolzarb, siyosiy jihatdan muhim g'oyani targ'ib etishda og'zaki nutqning ahamiyati. Notiqlik va suxandonlik san'ati, uning kommunikatsiya taraqqiyotidagi o'rni.

Notiqlik san'ati ravnaqini rag'batlantirgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy omillar. Antik davrda imperator Yuliy Sezar tashabbusi bilan tashkil etilgan "Kundalik axborotnoma" ommaviy gazetaning dastlabki ibtidosi sifatida.

8-mavzu. XVII-XVIII asrlarda yevropada davriy matbuot paydo bo'lishining shart-sharoitlari.

Dastlabki gazeta va jurnal maqomidagi nashrlarning tashkil topishi. Jamiyatda axborotga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi natijasida yevropada axborot yig'ish va uni nashrga tayyorlash bilan shug'ullanuvchi dastlabki axborot markazlarining tashkil topishi.

Davriy matbuot nashrlarining yuzaga kelishida va taraqqiy etishida bosmaxonalarning, pochta xizmatining ahamiyati. Matbuotning qudratli siyosiy kuchga aylanib borishi. Hukmron tabaqalaming matbuotdan o'z manfaatlari yoiida foydalanishga intilishining kuchayishi. Matbuot erkinligi uchun kurash.

9-mavzu. Fransuz burjua revolyusiyasi davri matbuoti.

XVIIIasrda fransuz matbuotining taraqqiyoti. 1789-1794 yillardagi Buyuk fransuz inqilobi davrida asosiy masalalami yorituvchi siyosiy matbuotning vujudga kelishi. Mazkur davr fransuz davriy matbuotining asosiy tiplari va ko'rinishlari.

Matbuotning texnik imkoniyatlari. Davriy nashrlarning daromad manbalari. 1789 yil 26 avgust Fransiya Millat Majlisi tomonidan qabul qilingan «Inson va grajdanlik huquqlari Deklaratsiyasi"da matbuot erkinligi g'oyasining asoslanishi. J.P.Marat, K.Demulin, M.Robesp'er va boshqalar - buyuk fransuz inqilobining yetakchi publitsistlari.

10-mavzu. AQSh jurnalistikasi tarixi

Hozirgi zamon Amerika matbuotining ilk namunalari. Ingliz tilida

chop etilgan "Boston nyusletter"(1704), "Ze gazetta" (1719), "Amerikan uikli" (1725) gazetalarining qiyofasi va mazmuni. XV111 asrning ikkinchi yarmida Amerika davriy matbuoti tizimida ro'y bergan o'zgarishlar. Shaharlarda turli tillarda tabloidlar (kichik hajmdagi bosma gazetalar) tarrpog'ining vujudga kelishi. Matbuotda Britaniya mustamlakachiligiga qarshi kayfiyatning kuchayishi.

1791 yili AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan "Birinchi qo'shimcha"da so'z va matbuot erkinligi muammolari talqini. XIX asrboshida Amerikada fan va texnika rivojlanishi ta'sirida ommaviy matbuotning yuzaga kelishi.

XIX asr oxiriga kelib Amerika jumalistikasining butkul tijoratlashuvi. Yangi texnik imkoniyatlar: telegraf, telefon, rotatsion bosma dastgohlar ixtiro qilinishining Amerika jurnalistikasi ravnaqiga keskin ta'siri.

Amerika jurnalistikasi tarixiy taraqqiyotida iste'dodli reportyorlar, muharrirlar, noshirlarning tutgan o'rni. Jozef Pulitser (1 847-1931) "Yangi jurnalizm" asoschisi va "Nyu-York uorld" gazetasini ushbu yo'nalishning modeli sifatida shakllantirgani.

Sodda ingliz tili, rasm va hajviyalar, shov-shuv va hokazolar gazeta adadini ko'paytirishda foydalanilganligi. Matbuotga "sariq bola sarguzashtlari"(Yellow kid) nazariyasining olib kirilishi. Uilyam Rendolf Xyorst (1863-1951) —Amerika matbuotining eng yirik namoyandasi. Amerika matbuoti salbiy jihatlarining ko'pchiligi Xyorst nomi bilan bog'liqligining sabablari.

11-mavzu. Osiyoning rivojlangan mamlakatlari matbuoti taraqqiyot bosqichlari (Xitoy, Yaponiya va Koreya)

Xitoydagi ilk gazetalar. 1949 yilda Xitoy Xalq Respublikasining yangi tipdagi OAVning yuzaga kelishi. "Jenmin Jibao" (Xalq gazetasi) XXR ning yetakchi nashri sifatida.

"Kavaraban" XVI1 asrda Osaka shahrida nashr etilgan dastlabki yapon gazetasi sifatida. Boshida xorij gazetalarining ("Bovariya Shimbun", "Shimbunsi", "Seyo dzassi", "Tyutay shimbun", "Koko shimbun") tarjimalari chop etilganligi. "Yokohoma shimbun" yapon tilidagi ilk gazeta ekanligi. Yaponiyada birin-ketin kundalik gazetalar "Nitiniti" (1872 yil), "Xoti"(1873), "Yomuri"(1874 yil) kabilarning nashr etila boshladi. 1923 yildagi kuchli zilziladan so 'ng Yaponiya matbuoti butunlay yangitdan yuzaga kelganligi.

Koreyada siyosiy jurnalistika tarixi 1883 yilidan boshlangani. O'sha paytda bir guruh yosh islohotcbilar Kim Okkuyun boshchiligida "Xanso sunbo" gazetasini bosib chiqarishgani. 1894-1895 - yillardagi yapon-xitoy urushidan keyin Xitoyning Koreyaga bo'lgan rejalari ham o'zgarganligi.

Koreyada missionerlik va mustamlakachilik matbuotining paydo bo'lishi va taraqqiyoti. XX asr boshida matbaa texnikasining taraqqiy etishi koreys matbuotiga asosiy poydevor bo'lganligi.

12-mavzu. XIX asrda dunyo jurnalistikasi. XX asrning birinchi yarmida jahon matbuoti.

XIX asrdayoq matbaachilik sohasini mexanizatsiyalashga urinishlar bo'lgan. Shu nuqtai nazardan bu asrni «matbaachilikni mexanizatsiyalashtirish asri» deb ham atash mumkin. O'sha davrda matbaa faoliyati bilan bog'liq ikki muhim ish – harf terish va chop etish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish ustida ish olib borildi. Biroq bu darhol amalga oshavermadi. Asr boshida qog'oz massasi qozondan qo'l bilan suzib olinardi, so'ngra u harakat qilib turgan elakka quyiladigan bo'ldi. Natijada qog'oz massasini tag moslama-polotnoda tekisroq yoyib, tezroq va osonroq presslash imkoni tug'ildi. Shu tufayli ko'p miqdorda qog'oz ishlab chiqarishga yo'l ochildi.

Jahon matbuoti XX asrning birinchi yarmida ravnaq topdi. O'sha davrdayoq angliyaliklarning amerikalik o'quvchilarga nisbatan ikki marta, fransuzlarga qaraganda uch barobar ko'p gazeta-jurnal xarid qilishlari kuzatilgan.

Ma'ruza mashg'ulotlari professor-o'qituvchi tomonidan zamonaviy pedtexnologiyalar asosida interfaol usullar orqali tashkillashtiriladi.

II. Seminar mashgulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. XIX asr oxiri Turkistondagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat va matbuotning yuzaga kelishi.
2. "Turkestanskie vedomosti", "Turkiston viloyatining gazeti" nashrlarining tashkil etilishi.
3. Matbuotda xususiy gazeta va jurnallarning tashkil topishi, senzura va axborot agentliklari.
4. Turkiston Muxtoriyati - muvaqqat hukumat davri nashrlari.
5. Ma'rifatparvar publitsistlar: Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy.
6. O'zbekistonda bolsheviklar matbuotining yuzaga kelishi.
7. Sho'rolar matbuotining Ikkinchi jahon urushi va undan so'nggi davrlari (1941 - 1991 yillar).
8. Qadimgi Yunoniston, Rim va 0'rta asr yevropasida kommunikatsiya vositalari.
9. XVIII asrda fransuz matbuotining taraqqiyoti.
10. XVIII-XIXasr boshida Amerika jurnalistikasi shakllanishining xususiyatlari.
11. Xitoy, Yaponiya, Koreya matbuoti tarixi taraqqiyoti bosqichlari.
12. XX asr ommaviy axborot taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

Mazkur ro'yxatdagi mavzular seminar mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalar, yangi o'quv metodlari asosida olib boriladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshirislar:

	I-semestr 1.Sho'rolar davri ilmiy jurnallar faoliyati. 2.Sho'rolar davri yoshlarga mo'ljallangan matbuot nashrlari. 3. Sho'rolar davri qatag'onga uchragan publisistlar faoliyatini o'rganish. 4. Ikkinchi jahon urushi yillari o'zbek publisistikasi. 5.O'tgan asrning 70-80 yillari o'zbek OAV tizimida ixtisoslashgan jurnailar ko'lamini tahlil etish. 6.Qayta qurish vaoshkoralik davri o'zbek publitsistikasini o'rganish. 7.Mustaqillik davri o'zbek matbuotidagi mustaqillik mavzuidagi publitsistik maqolalarni tahlil qilish. 8.Mustaqillik davri matbuotidajadidchilik harakatiningyoritilishi. 9. Tarixiy taraqqiyot jarayonida kommunikatsiyaning asosiy tushunchasi va kategoriyasi. 10.Qadimgi Yunoniston, Rim va 0'rta asr yevropasida kommunikatsiya vositalari. 11.Og'zaki publitsistika (notiqlik san'ati), mashhur notiqlarning asarlarini o'rganish. 12.XV1I-XVI1I asrlarda yevropada davriy matbuot paydo bo'lishining shart- sharoitlari. 13.Gutenberg ixtirosi va zamonaviy matbaachilik. 14.Fransuz burjua revolyusiyasi davri matbuoti. 15.XVIII-X1X asr boshida Amerika jumalistikasi shakllanishining asosiy xususiyatlari. 16.XIX asrda G'arbiy yevropa OAV tizimi taraqqiyoti. 17.XIX asr rus jumalistikasi. Rossiyada dekabristlar harakati davri jurnalistikasi. 18.XX asr boshida AQSh jurnalistikasining taraqqiyoti. 19.Xitoyda media sanoatining o'ziga xos rivojlanishi. 20.XX asr Yapon mo'jizasining mamlakat OAVsidagi muhim o'rni.
3	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Madaniyatlararo kommunikatsiya jurnalistikaning tarixiy taraqqiyotida tutgan o'rni, uning tarixiy ildizlari, mafkuraviy ta'sir etishning vositalari, dastlabki gazetalarning chop etilishi, jahonda va O'zbekistonda turli tarixiy davrlarda davriy matbuotning rivojlanishi to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;*** jurnaiistika taraqqiyotida ijodkor (jurnalist) shaxslarning o'rni va ularning professional faoliyati, jamiyatda ro'y bergan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy o'zgarishlar va ularning matbuot ravnaqiga ta'siri, "to'rtinchi hokimiyat" maqomidagi jurnalistikaning rivojlanish xususiyatlarini ***bilishi***

	va ulardan foydalana olishi; talaba tarixiy hodisa va jarayonlami tahlil qilish usullarini qo'llash, jurnaiistika amaliyotida uchraydigan muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmulariga ega bo'lishi kerak.***
4	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • kompyuter; media • internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.; **jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.**
5	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6	**Asosiy adabiyotlar:** 1.Mo'minov F., Nurmatov A. va boshqalar. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik. - Toshkent.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashri, 2006. 2.T.Qozoqboyev. Jurnalistikaga kirish. Darslik.-Toshkent.: «IQTISOD-MOLIYA»2018. 3. Martin Conboy, Journalism: A critical history. SAGE Publications, UK, 2013. 4. Do'stqoraev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. - Darslik. T.: G'afur G'ulom nashriyoti. 2009. 5. Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. 1-2- kitoblar. T.: Akademiya, 2008. 6. "Jurnaiistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti" 1-tom.- Toshkent.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2019. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.:0'zbekisjton, 2017. - 485 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boiishi kerak. - T.:0'zbekiston, 2017.-103 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: 0'zbekiston, 2017. -

	47 b. 4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.- Universitet.1999 5. Qosimov B. Milliy uyg'onish. T. Ma'naviyat.2002. 6. Mahmudxo'ja Behbudiy.Tanlangan asarlar. 7. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 8. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 9. Munavvarqori Abdurashidxonov.Tanlangan asarlar. **Axborot manbalari:** 10. http://e-tarix.uz/vatan-tarixi/735-maqola.html 11. https://jadid.my1.ru/publ/1 -1 -0-5 12. ttps://ziyouz.uz/ozbek-nasri/mahmudxoja-behbudiy/ 13. http://e-adabiyot.uz/kitoblar/malumot/1068-maqola.html
7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024-yil "____"_____ dagi "____"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8	**Fan/modul uchun mas'ul:** I.M.Pardayeva - SamDChTI, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, PhD.
9	**Taqrizchilar:** B.N.Turniyozov - SamDChTI, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, f.f.d. F.I.Toshev - "Zarafshon" gazetasi bosh muharriri.